

AQIDAPARASTLIK, DINIY EKSTREMIZM VA TAQIQLANGAN DINIY MATERIALLARNING IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TAHDIDI

Yakubov Xushnudbek Sheribbayevich

O'zbekiston Respublikasi

Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

mustaqil izlanuvchisi

E-mail:xushnud6982@gmail.com

Tursunova Mukarramxon Dilshodjon qizi

O'zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti

E-mail:tursunovamukarramxon2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqidaparastlik tushunchasi, uning jamiyatga ta'siri, shuningdek, taqiqlangan diniy materiallarning tarqatilishi orqali ekstremistik g'oyalar yoyilishi xavfi va insonlarning diniy ekstremizm g'oyalari ta'siriga tushib qolish sabablarini tahlil qilinadi. Ushbu maqola orqali hodisalarning ildizlari, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar, oldini olishda davlat va fuqarolik jamiyatining roli, ta'lim va ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini yoritib beradi. Maqola diniy ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha amaliy yechimlarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: diniy aqidaparastlik, diniy ekstremizm, diniy fundamentalizm, diniy mazmundagi materiallar, diniy radikalizm, xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik, profilaktika.

Аннотация: В данной статье анализируются понятие религиозного фанатизма, его влияние на общество, а также опасность распространения экстремистских идей через распространение запрещённых религиозных материалов и причины, по которым люди могут попасть под влияние идей религиозного экстремизма. Статья освещает корни этих явлений, условия, способствующие их возникновению, роль государства и гражданского общества в их предотвращении, а также значение образования и средств массовой информации. В статье предлагаются практические решения по борьбе с религиозным экстремизмом.

Ключевые слова: религиозный фанатизм, религиозный экстремизм, религиозный фундаментализм, материалы религиозного содержания, религиозный радикализм, безопасность, общественная стабильность, профилактика.

Annotation: This article analyzes the concept of religious fanaticism, its impact on society, as well as the danger of spreading extremist ideas through the distribution of banned religious materials and the reasons why individuals may fall under the

influence of religious extremism. The article highlights the root causes of these phenomena, the conditions that enable them, and the role of the state and civil society in prevention. It also emphasizes the importance of education and mass media. The article proposes practical solutions for combating religious extremism.

Keywords: religious fanaticism, religious extremism, religious fundamentalism, religious content, religious radicalism, security, social stability, prevention.

XX asrning oxirlarida xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi global muammolar qatoriga diniy ekstremizm (ya'ni ba'zi diniy tashkilotlar yoki asosan ayrim dindorlarning jamiyat qonun-qoidalariga mos kelmaydigan mafkurasi va faoliyati) [1] ofati ham kelib qo'shildi va shu paytda diniy ekstremizm diniy-siyosiy harakat sifatida avj oldi. Yadroviy urush xavfi, ekologik fojia kabi jahonshumul muammolar insoniyat taqdiriga qanchalik vayronkor tahdid qilayotgan bo'lsa, diniy ekstremizmning buzg'unchilik ta'sir ko'lamini ham ulardan kam emasligini ko'rsatdi. Nafaqat iqtisodiy qoloq yoki rivojlanayotgan, balki rivojlangan davlatlarga ham birday xavflidir. Bu esa o'z navbatida, jahon miqyosida diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash xalqaro darajada kuchlarning birlashtirilishini taqozo etadi. Bu kurashda, eng avvalo, diniy ekstremizmning yuzaga kelish sabablari, mohiyati va xususiyatlarini o'rganish lozim.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida diniy aqidaparastlik va ekstremistik qarashlar bilan bog'liq muammolar keskin ortib bormoqda. Diniy aqidaparastlik — bu shaxs yoki guruhning diniy e'tiqodlariga mutlaqo va tanqidiy yondashuvsiz, qat'iy yopishib olishi, boshqa fikr va qarashlarga toqatsiz bo'lishi holatidir[2]. Bu holat diniy mutaassiblik (fanatizm) va ko'pincha ekstremistik yoki radikal qarashlarga olib kelishi mumkin. U jamiyatda nizolar, diniy ziddiyatlar va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, taqiqlangan diniy mazmundagi materiallarning tarqalishi, ular orqali radikal (lotincha radix — ildiz — tub, qat'iy va keskin choralari, harakatlar, dasturlar tarafdori)[3] g'oyalar yoyilishi ijtimoiy barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda. Hozirgi kunda, jahon internet tarmoqlari rivojlanishi natijasida, ko'plab insonlar o'zlarini ustida ishlab ulkan yutuqlarga erishmoqdalar. Lekin, tanganing ham ikki tomoni bo'lgani singari, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishidan o'zlarining egri maqsadlari yo'llarida foydalanayotganlar ham kam emas. Ular o'zlarining maqsadlarini amalga oshirish maqsadida, internet foydalanuvchilariga o'zlarining ta'sirlarini o'tkazib kelishmoqda hamda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari diniy aqidaparastlik va ekstremistik g'oyalarning qurboniga aylanib qolmoqdalar. Buning

¹ <https://in-academy.uz/index.php/yota/article/download/22640/15001/21265>.

² <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/manaviyat-asoslari/diniy-aqidaparastlikning-kelib-chiqishi-va-mohiyati>

³ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Radikal_\(ma%CA%BCnolari\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Radikal_(ma%CA%BCnolari))

asosiy sabablaridan biri shuki, har bir inson internet ijtimoiy tarmoqlaridan kundalik yumushlarini hal qilishda va boshqa maqsadlarda foydalanadi va kunlarining ko'p qismini ijtimoiy tarmoqdan foydalanib o'tkazishadi. Turli xil yutuqli o'yinlarga ishonib, oson pul topish ishtiyoqida hamda dinni yangi o'rganuvchilar Diniy qo'mita tomonidan aniq tasdiqlanmagan va ruxsatnomaga ega bo'lmagan materiallarga aldanib yoki o'z hayotlariga moslashtirish maqsadida noto'g'ri talqin qilishlari tufayli ko'plab foydalanuvchilar diniy aqidaparastlik hamda ekstremistik g'oyalar qurboniga aylanishmoqda. Shu o'rinda ekstremizm nima ekanligiga ham to'xtalib o'tish joiz, ekstremizm bu — ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi.

Diniy aqidaparastlik, bu qat'iy va tanqidiy fikrdan mahrum bo'lgan, ekstremistik yo'nalishlarga moyil bo'lgan diniy qarashlar shakli bo'lib, u jamiyatda nizolar, xavfsizlik muammolarini hamda yoshlar orasida radikal qarashlarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bugungi kunda, olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari qaramasdan, yetarlicha samara bermayotganligi sababli ko'plab yoshlar diniy aqidaparastlik, radikalizm va ekstremizm g'oyalari ta'siriga tushib qolmoqda. Mamlakatimizda diniy aqidaparastlik, jamiyatdagi nizolar, ularning ta'siriga tushib qolishdan va yoshlar orasida radikalizmning shakllanishiga qarshi, ularni oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish darkor:

1. Diniy savodxonlikni oshirish. Maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida diniy bag'rikenglik, tarixiy-diniy ongni rivojlantirishga qaratilgan darslar tashkil etish. Ijtimoiy tarmoqning asosiy foydalanuvchilari maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi va talabalari hisoblanib, ular o'rtasida "halol" va "harom" tushunchalari orqali ularning ongiga ta'sir o'tkazish oson, chunki ko'plab yoshlar din bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lmay turib, ijtimoiy tarmoqlardagi domlarning ma'ruzalarini tinglab ular ta'siriga tushib qolishmoqda. Diniy savodxonlikni oshirish orqali, maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarining yoshlarini diniy aqidaparastlik, radikalizm va ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushishdan asrab qolishimiz mumkin. Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan hamkorlikda maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida aholi orasida konfessiyalararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish hamda ekstremizm, separatizm va mutaassiblik g'oyalari ta'siriga tushib qolgan shaxslarni, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni sog'lom hayotga qaytarish, jamiyatda tinchlik va totuvlik muhitini mustahkamlash borasida ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni olib borishni rejalashtirib, targ'ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil qilish.

2. Nazorat va monitoring tizimini kuchaytirish. Taqiqlangan diniy materiallarning internetda tarqalishiga qarshi texnologik va huquqiy nazorat mexanizmlarini joriy etish. Yashirin tarzda tarqatilayotgan diniy materiallarni aniqlash, ijtimoiy tarmoqlarda diniy-ekstremistik guruhlar tashkil etilishini oldini olish orqali yoshlarga taqiqlangan diniy materiallar yetib borishidan oldin bu materiallarni, g'oyalarni to'sish, ekstremistik guruhlariga kadrlar tayyorlab, yetkazib berilishining oldini olishimiz mumkin. Raqamli monitoring tizimlarini yaratish lozim. Internet va ijtimoiy tarmoqlarni doimiy kuzatuvga olish, sun'iy intellekt asosida xavfli kontentni aniqlash.

3. Mahalliy jamoalarni jalb etish. Mahallalar, jamoat tashkilotlari va diniy idoralar bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar o'tkazish. Ko'p yillik tajribalar ko'rsatmoqdaki, yoshlar muhiti, shu jumladan voyaga yetmaganlar o'zining ijtimoiy himoyalanganligi va o'ta ta'sirchanligi tufayli, ekstremizm va terrorizmning tajovuzkor mafkurasi oldida eng zaif qatlam bo'lib qolmoqda. Shu sababli, mahalla ahli bilan hamkorlikni tashkil etish orqali ularning ota-onalarini ogohlantirishimiz hamda diniy idoralar orqali ularga kerakli ma'lumotlarni amaliy misollar bilan ko'rsatishimiz mumkin. Bu chora-tadbirni, bir tomondan yoshlarga yetib borishning asosiy yo'llaridan biri desak ham bo'ladi.

4. OAV orqali tushuntirish ishlari. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar orasida sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan kontentlar tayyorlash. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida tashkilotni ekstremistik tashkilot deb topish sud tartibida amalga oshiriladi. Tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Oliy sudining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinishi lozimligi "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi⁴ qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Ammo, bu rasmiy veb-saytlarni O'zbekiston Respublikasi hamma fuqarosi ham kuzatib bormaydi. Shuning uchun, ularni Ommaviy axborot vositalari orqali maxsus ko'rsatuvlarni tayyorlab, xalqqa ulashish zarur.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali biz fuqarolarning diniy savodxonligini oshirishimiz, yoshlarning radikal g'oyalar va diniy-ekstremistik tashkilotlar ta'siriga tushib qolish foizlari kamayishlariga erishish mumkin. Nazorat va monitoring tizimini kuchaytirish tufayli esa, taqiqlangan diniy materiallarning tarqalishi cheklanadi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi, eng muhimi esa, ekstremistik qarashlarga qarshi xalqda immunitet shakllanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, diniy aqidaparastlik va taqiqlangan diniy materiallar, nafaqat diniy, balki ijtimoiy xavf manbaidir. Bu holatga qarshi kurashda davlat, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va OAV birgalikda harakat qilishi lozim. Har bir

⁴ <https://lex.uz/docs/-3841957>

fuqaro bu muammoning jiddiyligini anglab, unga qarshi ongli kurash olib borishi kerak. Faqat shundagina barqaror, tinch va farovon jamiyatga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qununi
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.01.2014-yildagi "Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 10-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.09.2021 yildagi 612-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.
4. Yakubov X.Sh., Diniy-ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslar bilan ishlashning huquqiy, ijtimoiy-psixologik asoslari: O'quv-uslubiy qo'llanma. – T., 2023. – B.42.
5. Якубов, Х. Ш. (2023). Психологические особенности оперативно-розыскного мероприятия «опрос». образование наука и инновационные идеи в мире, 25(2), 45-48.
6. "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning dolzarb masalalari", Muqimjon Qosimov, T. – 2017.
7. "Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi va mohiyati" – Arxiv.uz.
8. A.V.Norbekov. "Dinshunoslik asoslari" o'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.07.2021 yildagi "2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6255-son Farmoni.